

Davlat test markazi faoliyati to'g'risida axborot olishga doir so'rovlarni qabul qilish va ko'rib chiqish tartibi

DTM faoliyati to'g'risida axborot olishga doir so'rov axborotdan foydalanuvchining DTM faoliyati to'g'risida axborot taqdim etish haqida yo'llagan og'zaki yoki yozma shakldagi (shu jumladan elektron hujjat shaklidagi) talabidir.

Axborotdan foydalanuvchi Davlat test markazi (DTM) faoliyati to'g'risida axborotni olish yuzasidan bevosita yoxud o'z vakillari orqali so'rov bilan murojaat etishi mumkin.

“O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonunga muvofiq, axborotdan foydalanuvchilarga DTM faoliyati to'g'risida axborot olishga doir so'rovlar bilan davlat tilida murojaat etish, shuningdek ularga davlat tilida javoblar olish huquqi ta'minlanadi. Axborotdan foydalanuvchilar boshqa tillarda ham murojaat etishi va javoblar olishi mumkin.

Axborotdan foydalanuvchilarning so'rovlari DTM devonxonasida qabul qilinadi hamda shu kunning o'zida belgilangan tartibda ro'yxatga olinib, masalaning tegishliligiga qarab rahbariyat rezolyusiyasi asosida tarkibiy bo'linmaga ijroga beriladi. Kelib tushgan so'rovlarni elektron ro'yxatga olish jurnalidagi ma'lumotlar har oyda rasmiy veb-saytdagi tegishli shakllarni to'ldirishda foydalaniladi.

Agar axborot olishga doir so'rovni ko'rib chiqish bir necha ijrochiga topshirilsa, unda rezolyusiyada birinchi ko'rsatilgan ijrochi asosiy ijrochi hisoblanadi.

Ayni bir shaxsdan va ayni o'sha masala bo'yicha tushgan so'rov, agar birinchi so'rov berilgan vaqtdan e'tiboran so'rovga javob berish muddati o'tgan bo'lsa yoki axborotdan foydalanuvchi o'ziga berilgan javobdan qanoatlanmagan bo'lsa, takroriy deb hisoblanishi kerak. Takroriy so'rovga u tushgan paytda navbatdagi ro'yxatga olish indeksi beriladi, ro'yxatga olish-nazorat yozuvining tegishli ustunida “takroriy” degan belgi qo'yiladi.

Jismoniy shaxsning so'rovida uning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan va so'rovning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak. Yuridik shaxsning so'rovida yuridik shaxsning to'liq nomi, uning joylashgan

manzili (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan, so'rovning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak.

Yozma so'rovlar axborotdan foydalanuvchining shaxsiy imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Axborotdan foydalanuvchining shaxsini bilish imkoniyatini beruvchi ma'lumotlarni o'z ichiga olmagan so'rov anonim hisoblanadi va ko'rib chiqilmaydi.

Belgilangan tartibda yuborilgan so'rov ko'rib chiqilishi shart.

Axborotdan foydalanuvchining so'rovi ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran ko'pi bilan o'n besh kunlik muddatda ko'rib chiqilishi kerak.

Ommaviy axborot vositasining DTM faoliyati to'g'risida axborot olishga doir, shuningdek mansabdor shaxslarning intervyusini tashkil etish to'g'risidagi so'rovi ko'pi bilan yetti kunlik muddatda ko'rib chiqiladi.

Agar axborotdan foydalanuvchining so'rovini ko'rib chiqish DTM vakolatlariga kirmasa, so'rov so'ralayotgan axborotni taqdim etish vakolatiga kiritilgan organga ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida yuboriladi, axborotdan foydalanuvchi esa bu haqda xabardor qilinadi.

Rasmiy nashrlarda, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan (chop etilgan) yoxud rasmiy veb-saytlarda joylashtirilgan axborot so'ralganda DTM so'rovga beriladigan javobda so'ralayotgan axborot e'lon qilingan (chop etilgan) rasmiy nashrning, ommaviy axborot vositasining nomi, chiqarilish sanasi hamda raqamini va (yoki) so'ralayotgan axborot joylashtirilgan rasmiy veb-saytning elektron manzilini ko'rsatgan holda havola berishi mumkin.

Agar DTM olingan so'rov bo'yicha davlat organlarining vakolatlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lmasa, axborotdan foydalanuvchiga so'rov ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida tegishli javob yuboriladi.

So'rov rad etilgan taqdirda axborotdan foydalanuvchiga asoslantirilgan javob yuboriladi.

Axborotdan foydalanuvchilarning DTM faoliyati to'g'risida axborot taqdim etish yuzasidan tushgan barcha so'rovlari devonxona tomonidan nazoratga olinadi.

Axborot taqdim etish haqidagi so'rovlarni ko'rib chiqish so'rovni amalga oshirayotgan axborotdan foydalanuvchiga barcha so'ralayotgan axborot taqdim etilganidan va ular ko'rib chiqish uchun topshiriq bergan rahbar tomonidan nazoratdan chiqarilganidan keyingina tugallangan deb hisoblanadi.

Axborot taqdim etish haqidagi so'rovga og'zaki javob berilgan hollarda ro'yxatga olish kartochkasiga tegishli yozuv yozib qo'yiladi.

Ko'rib chiqish materiallari asosida mas'ul ijrochi yoki nazoratni amalga oshiruvchi shaxs ko'rib chiqish natijalari bo'yicha so'rovni ko'rib chiqish haqida topshiriq bergan rahbariga nazoratdan chiqarish uchun ma'lumot beradi.

Axborotdan foydalanuvchilarni shaxsan qabul qilish belgilangan jadvalga muvofiq rahbarlar, ularning o'rinbosarlari, shuningdek bu ishga vakolat berilgan mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Давлат тест маркази фаолияти тўғрисида ахборот олишга доир сўровларни қабул қилиш ва кўриб чиқиш тартиби

ДТМ фаолияти тўғрисида ахборот олишга доир сўров ахборотдан фойдаланувчининг ДТМ фаолияти тўғрисида ахборот тақдим этиш ҳақида йўллаган оғзаки ёки ёзма шаклдаги (шу жумладан электрон ҳужжат шаклидаги) талабидир.

Ахборотдан фойдаланувчи Давлат тест маркази (ДТМ) фаолияти тўғрисида ахборотни олиш юзасидан бевосита ёхуд ўз вакиллари орқали сўров билан мурожаат этиши мумкин.

“Ўзбекистон Республикасининг давлат тили ҳақида”ги Қонунга мувофиқ, ахборотдан фойдаланувчиларга ДТМ фаолияти тўғрисида ахборот олишга доир сўровлар билан давлат тилида мурожаат этиш, шунингдек уларга давлат тилида жавоблар олиш ҳуқуқи таъминланади. Ахборотдан фойдаланувчилар бошқа тилларда ҳам мурожаат этиши ва жавоблар олиши мумкин.

Ахборотдан фойдаланувчиларнинг сўровлари ДТМ девонхонасида қабул қилинади ҳамда шу куннинг ўзида белгиланган тартибда рўйхатга олиниб, масаланинг тегишлилигига қараб раҳбарият резолюцияси асосида таркибий бўлинмага ижрога берилади. Келиб тушган сўровларни электрон рўйхатга олиш журналидаги маълумотлар ҳар ойда расмий веб-сайтдаги тегишли шаклларни тўлдиришда фойдаланилади.

Агар ахборот олишга доир сўровни кўриб чиқиш бир неча ижрочига топширилса, унда резолюцияда биринчи кўрсатилган ижрочи асосий ижрочи ҳисобланади.

Айни бир шахсдан ва айни ўша масала бўйича тушган сўров, агар биринчи сўров берилган вақтдан эътиборан сўровга жавоб бериш муддати ўтган бўлса ёки ахборотдан фойдаланувчи ўзига берилган жавобдан қаноатланмаган бўлса, такрорий деб ҳисобланиши керак. Такрорий сўровга у тушган пайтда навбатдаги рўйхатга олиш индекси берилади, рўйхатга олиш-назорат ёзувининг тегишли устунида “такрорий” деган белги қўйилади.

Жисмоний шахснинг сўровида унинг фамилияси, исми, отасининг исми, яшаш жойи тўғрисидаги маълумотлар кўрсатилган ва сўровнинг моҳияти баён этилган бўлиши керак. Юридик шахснинг сўровида юридик шахснинг тўлик номи, унинг жойлашган манзили (почта манзили) тўғрисидаги маълумотлар кўрсатилган, сўровнинг моҳияти баён этилган бўлиши керак.

Ёзма сўровлар ахборотдан фойдаланувчининг шахсий имзоси билан тасдиқланган бўлиши керак.

Ахборотдан фойдаланувчининг шахсини билиш имкониятини берувчи маълумотларни ўз ичига олмаган сўров аноним ҳисобланади ва кўриб чиқилмайди.

Белгиланган тартибда юборилган сўров кўриб чиқилиши шарт.

Ахборотдан фойдаланувчининг сўрови рўйхатдан ўтказилган кундан эътиборан кўпи билан ўн беш кунлик муддатда кўриб чиқилиши керак.

Оммавий ахборот воситасининг ДТМ фаолияти тўғрисида ахборот олишга доир, шунингдек мансабдор шахсларнинг интервьюсини ташкил этиш тўғрисидаги сўрови кўпи билан етти кунлик муддатда кўриб чиқилади.

Агар ахборотдан фойдаланувчининг сўровини кўриб чиқиш ДТМ ваколатларига кирмаса, сўров сўралаётган ахборотни тақдим этиш ваколатига киритилган органга рўйхатдан ўтказилган кундан эътиборан уч иш куни ичида юборилади, ахборотдан фойдаланувчи эса бу ҳақда хабардор қилинади.

Расмий нашрларда, оммавий ахборот воситаларида эълон қилинган (чоп этилган) ёхуд расмий веб-сайтларда жойлаштирилган ахборот сўралганда ДТМ сўровга бериладиган жавобда сўралаётган ахборот эълон қилинган (чоп этилган) расмий нашрнинг, оммавий ахборот воситасининг номи, чиқарилиш санаси ҳамда рақамини ва (ёки) сўралаётган ахборот жойлаштирилган расмий веб-сайтнинг электрон манзилени кўрсатган ҳолда ҳавола бериши мумкин.

Агар ДТМ олинган сўров бўйича давлат органларининг ваколатлари тўғрисидаги маълумотларга эга бўлмаса, ахборотдан фойдаланувчига сўров рўйхатдан ўтказилган кундан эътиборан уч иш куни ичида тегишли жавоб юборилади.

Сўров рад этилган тақдирда ахборотдан фойдаланувчига асослангилган жавоб юборилади.

Ахборотдан фойдаланувчиларнинг ДТМ фаолияти тўғрисида ахборот тақдим этиш юзасидан тушган барча сўровлари девонхона томонидан назоратга олинади.

Ахборот тақдим этиш ҳақидаги сўровларни кўриб чиқиш сўровни амалга ошираётган ахборотдан фойдаланувчига барча сўралаётган ахборот тақдим этилганидан ва улар кўриб чиқиш учун топшириқ берган раҳбар томонидан назоратдан чиқарилганидан кейингина тугалланган деб ҳисобланади.

Ахборот тақдим этиш ҳақидаги сўровга оғзаки жавоб берилган ҳолларда рўйхатга олиш карточкасига тегишли ёзув ёзиб қўйилади.

Кўриб чиқиш материаллари асосида масъул ижрочи ёки назоратни амалга оширувчи шахс кўриб чиқиш натижалари бўйича сўровни кўриб чиқиш ҳақида топшириқ берган раҳбарига назоратдан чиқариш учун маълумот беради.

Ахборотдан фойдаланувчиларни шахсан қабул қилиш белгиланган жадвалга мувофиқ раҳбарлар, уларнинг ўринбосарлари, шунингдек бу ишга ваколат берилган мансабдор шахслар томонидан амалга оширилади.